

SAMARQANDNING ZAMONAVIY MA'MURIY-HUDUDIIY TUZILISHI VA
AHOLISI

Tursunov Asror Allanazarovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti v.b. professori

Davronov Ulug'bek Shoymurodovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Samarqand shahrining zamonaviy ma'muriy-hududiy tuzilishi va aholi tarkibi tahlil qilinadi. Unda shahar tumanlari, mahalliy boshqaruv tizimi, hududiy rivojlanish xususiyatlari hamda demografik ko'rsatkichlar yoritilgan. Shuningdek, aholining milliy va yosh tarkibi, urbanizatsiya jarayonlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari Samarqand shahrining hududiy rivojlanish istiqbollari baholashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Samarqand, ma'muriy-hududiy tuzilish, aholi, demografiya, urbanizatsiya, tumanlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.*

Annotation. *This article analyzes the modern administrative-territorial structure and population of Samarkand city. It examines the city's districts, local governance system, territorial development features, and key demographic indicators. In addition, the national and age composition of the population, urbanization processes, and the socio-economic significance of the city are discussed. The findings of the study can serve as an important source for assessing the future development prospects of Samarkand.*

Keywords: *Samarkand, administrative-territorial structure, population, demography, urbanization, districts, socio-economic development.*

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda shaharsozlikning rivojlanishini masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Eng avvalo, shaharlarning respublika ma'muriy-hududiy tizimidagi o'rni, tuzilishi, klassifikatsiyasi bilan bog'liq muhim qaror va qonunlar qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etildi. Samarqand viloyati O'zbekiston Respublikasining markazida, Turkiston va Zarafshon tog' tarmoqlari bilan o'ralgan Zarafshon daryosi havzasida joylashgan. Shimoli-sharqdan Jizzax viloyati, sharqdan Tojikiston Respublikasi, janubdan Qashqadaryo viloyati, g'arbdan va shimoli-g'arbdan Navoiy viloyati bilan chegaradosh. Viloyatning umumiy maydoni 16,8 ming kv.km bo'lib, bu respublika umumiy maydonining 6,3 foizini tashkil etadi. Aholi zichligi esa bir kv.km.ga 159,5 kishiga teng keladi. Viloyat tarkibida 2 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar, 9 ta tumanga bo'ysunuvi bor. Shaharlar, 88 ta shaharchalar, 125 ta qishloq fuqarolari yig'ini, 1100 ta mahalla fuqarolari yig'ini va 1829 ta qishloq aholi punktlari mavjud⁶⁴.

Samarqand viloyatining markazi Samarqand shahrining bugungi kundagi umumiy maydoni 0,12 ming kv. km.ni tashkil qiladi. Bu viloyat umumiy maydonining 0,7%ini tashkil etadi. Samarqand shahri nafaqat viloyatning tarixiy shahri va ma'muriy markazi, balki,

respublika miqyosidagi eng muhim iqtisodiy ishlab chiqarish markazlaridan biridir. Samarqand shahri viloyatining Samarqand, Pastdarg'om, Jomboy, Tayloq va Oqdaryo tumanlari bilan chegaradosh. Shahar tumanidagi mahalla fuqarolari yig'inlari soni 191 tani tashkil qiladi⁶⁵.

Bugungi kunda Samarqandning turar-joy hududlari kengayib, yangi uy-joy massivlari rivojlanmoqda. Shahar hududida 14 ta yirik mavze va ko'plab guzarlar mavjud. Shahar markazidan nariroqda eski mahallalar va guzarlar bugungi kunda tarixiy boylik sifatida e'tirof etilmoqda. Ba'zi guzarlar uzoq yillardan buyon mavjud bo'lib, nomlanishi va joylashuvi o'zgarmagan. Shahar hududida eng qadimgi va mashhur guzarlar qatoriga Eski shahar, Qo'sh hovuz, Kavsarboy, Baland, Bog'ibon, Xo'ja Ahror, Xo'ja Is'hoq, Chuqurbozor, Registon, Ko'ksaroy va boshqa ko'plab guzarlar kiradi. 1939 yilda Samarqand shahrining dastlabki ma'muriy-hududiy bo'linishiga ko'ra, 3 ta shaharga bo'ysunuvchi — Bog'ishamol, Siyob va Temiryo'l tumanlari tashkil topgan⁶⁶.

Bog'ishamol tumani Samarqand shahrining markaziy qismida joylashgan va maydoni 200 gektarni tashkil qilgan. Tuman tarkibida Dinamo va Spartak sport maydonlari, «Krasniy dvigatel», Superfosfat, Nonkombinati, Vino zavodi (Xovrenko), 8 Mart fabrikasi, Morozov nomidagi tipografiya va shu kabi 20 dan ortiq korxonalar joylashgan. Siyob tumani shaharining tarixiy qismini o'z ichiga olgan. Tumanida «Gelion» zavodi, «Hujum» fabrikasi, Siyob bozori, O'zFA Arxeologiya instituti va boshqa inshootlar joylashgan. Temiryo'l tumani shaharining g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, kinap, chinni, muzlatgich, liftsozlik zavodlari, choy qadoqlash fabrikasi, bir necha oziq-ovqat korxonalari, qurilish tashkilotlari kabi korxonalar joylashgan⁶⁷.

Bu tumanlar 1950 yilda tugatilib, 1976 yilda qayta tuzilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003 yil 12 dekabrda qaroriga muvofiq Siyob, Bog'ishamol va Temiryo'l tumanlari tugatildi⁶⁸.

Shahar 2017 yildan boshlab yangi tumanlarga bo'linib, Samarqand, Sudiun va Farhod nomli 3 ta tuman paydo bo'ldi. Ushbu yangi bo'linish orqali ma'muriy jihatdan Samarqand shahrining rivojlanishiga bo'ysunuvchi qaror qabul qilindi. Yangi tashkil etilgan mahallalar 1951 yilda tashkil topgan. Hozirda shahar hududida 6 ta mahalla fuqarolar yig'ini, 120 ta ko'p qavatli hamda 318 ta yakka tartibdagi hovli-joylar, jami 16 ta ijtimoiy soha obyektlari mavjud. Farhod shaharchasi Samarqand shahar markazidan 6 km uzoqlikda, Zarafshon daryosining o'ng sohilida joylashgan. Farhod shaharchasi 1981 yilda tashkil etilgan. 1994 yilda Jomboy tumani tarkibidagi posyolka sifatida tashkil etilgan. 1994 yildan Samarqand shahar tarkibiga kiritilgan.

Shaharchada temir-beton plitalar ishlab chiqariladi, asfalt-shag'al saralash zavodlari, O'zbekiston-Angliya-AQSh «O'zBAT» (tamaki mahsulotlari ishlab chiqariladi), O'zbekiston-Turkiya (to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqariladi) qo'shma korxonalari, suv xo'jaligi va qurilish ta'minoti boshqarmasi, avtovokzal, zovur-ariklarni tozalash mexanizatsiyalangan birlashmasi va qator ijtimoiy-madaniy muassasalar mavjud⁶⁹. Bundan tashqari, Farhod shaharchasida Shirin, Bunyod, Chilonota mahalla fuqarolar yig'ini, 33 ta

ko'p qavatli uy, 6 ta yakka tartibdagi hovli-joylar, 113 ta tomorqa bor xo'jaliklar va 8 ta ijtimoiy soha obyektlari bor. Sudiun (Xishrav) shaharchasi Samarqand shahar markazidan 7 km uzoqlikda Darxon kanalining sharqiy tomonida joylashgan bo'lib, 1951 yilda tashkil etilgan. Tumanda qishloq xo'jaligi va sanoat rivojlangan. Hududda Sug'diyona, Navro'z, Yoshliq, Chilquduq mahalla fuqarolar yig'ini, 1 ta ko'p qavatli uy, 1040 ta yakka tartibdagi hovli-joylar, 788 ta tomorqasi bor xo'jaliklar, 5 ta ijtimoiy soha obyektlari mavjud⁷⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil fevral qaroriga muvofiq, mazkur shaharchalar tugatilib, Samarqand shahar tarkibiga birlashtirildi. Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobida hokimlik institutini tashkil etish konseptual asoslari mustahkamlandi. Shahar hokimliklari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunga muvofiq tashkil etadi. Mazkur huquqiy hujjatlarga ko'ra, shahar hokimligi tegishli hududda davlat, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishga rahbarlik qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalari va mahalliy byudjetni tasdiqlaydi, unga bo'ysunuvchi korxona, tashkilot va muassasalarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi. Shuningdek, qonunlarga rioya etilishini, davlat va ahloq tartibini, fuqarolarning huquqlarini muhofaza qilishni ta'minlaydi⁷¹.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston shaharlarining o'ziga xos boshqaruv tizimi ta'minlanib, u tarixiy an'ana va xususiyatlarni o'zida mujassam etgan holda shakllantirildi. Bugungi kunda Samarqand shahar hokimligi o'z faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagi tarkibiy tuzilmalarga ega: umumiy bo'lim, iqtisodiyot va tadbirkorlik bo'limi, kapital qurilish bo'limi, moliya bo'limi, ijtimoiy rivojlanish bo'limi va ishlar boshqarmasidan iborat.

Mustaqillik arafasida, aniqrog'i 1989 yilda sobiq SSSRda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, Samarqand shahri aholisi soni quyidagicha edi⁷².

Jami Samarqand shahri Shahar tarkibidagi tumanlar Shahar-tumanlari tarkibidagi posyolkalar

Bog'ishamol Temir yo'l Siyob Kimyogarlar Xishrav Farxod
367031 89108 152652 125271 14937 4029 4134

Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobida hokimlik institutini tashkil etish konseptual asoslari mustahkamlandi. Shahar hokimliklari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunga muvofiq tashkil etadi. Mazkur huquqiy hujjatlarga ko'ra, shahar hokimligi tegishli hududda davlat, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishga rahbarlik qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalari va mahalliy byudjetni tasdiqlaydi, unga bo'ysunuvchi korxona, tashkilot va muassasalarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi. Shuningdek, qonunlarga rioya etilishini, davlat va ahloq tartibini, fuqarolarning huquqlarini muhofaza qilishni ta'minlaydi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston shaharlarining o'ziga xos boshqaruv tizimi ta'minlanib, u tarixiy an'ana va xususiyatlarni o'zida mujassam etgan holda shakllantirildi. Bugungi kunda Samarqand shahar hokimligi o'z faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagi tarkibiy tuzilmalarga ega: umumiy bo'lim, iqtisodiyot va tadbirkorlik bo'limi, kapital qurilish bo'limi, moliya bo'limi, ijtimoiy rivojlanish bo'limi va ishlar boshqarmasidan iborat.

Mustaqillik arafasida, aniqrog'i 1989 yilda sobiq SSSRda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, Samarqand shahri aholisi soni quyidagicha edi:

Sovet davrining so'nggi yillarida avj olgan iqtisodiy-ijtimoiy muammolar sababli ko'pgina millatlar – qrim tatarlari, nemislar, koreyslar, armanilar, polyaklar, yahudiylar, mesxetin turklari, ruslar va boshqa xalqlar o'zlarining tarixiy vatanlariga va boshqa yurtlarga ko'chib ketganlar. Ularning eng katta qismini yahudiylar va rusiy zabon xalqlar tashkil etgan. Eski shaharning Yahudiylar mahallasida yashagan deyarli barcha yahudiy millatiga mansub aholi vakillari Rossiya, Amerika va o'zlarining tarixiy vatanlari hisoblangan Isroil davlatiga ko'chib ketganlar. Shu bilan birga, 1990-yillarda qudratli davlatlarning siyosiy-iqtisodiy yordami bilan afg'on muhojirlari ham Samarqandga kelganlar⁷³. Ular orasida qochqin sifatida kelib, mamlakatimizda doimiy yashab qolganlar va Afg'onistonga qayta olmaganlari ham borligi ma'lum. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, respublika muhojirlariga mustaqil ravishda migratsiyaga yordam berib MDH doirasida imzolangan bitimlar va Inson huquqlari kabi xalqaro qonunlar asosida amalga oshirilgan. Tegishli tashkilotlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand shahridan 2004–2019 yillar oralig'ida jami 536234 aholidan 84465 kishi (16%ga yaqin) uzoq muddatli xorijda yashab kelmoqda⁷⁴.

Jumladan, «Go'ri Amir» mahallasidagi jami 2685 aholidan 300 kishi (11% atrofida), «Panjob» mahallasidagi 2662 kishidan 389 tasi (15%ga yaqin). Ammo, ularning aksariyati rasmiy ravishda Samarqand shahar aholisi ro'yxatidan turadi. 1995-yillardan e'tiboran, Samarqand shahridan Green Card lotoreyasi orqali AQShga borish holatlari boshlangan⁷⁵. Ularning ma'lum qismi AQSh fuqaroligini olib, ko'chib ketgan bo'lishsa-da, aksariyati shahar aholisi ro'yxatidan chiqmagan. Bugungi kunda ushbu mehnat migratsiyasi natijasida xorijga ketgan samarqandliklar AQShning Nyu-York, Pensilvaniya, Chikago, Florida, Ogayo, Kolorado, Merilend, Kaliforniya va boshqa shtatlarida mahallalararo uyushib yashayotganliklari, ularning o'z milliy urf-odatlariga va an'analari saqlab qolib, hamjihatlikda yashashga intilayotganliklari haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud⁷⁶.

Demograf olimlarning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, sun'iy yillarda Samarqand shahar aholisining barqaror o'sishini va turqiy aholi kuzatilmoqda. Buni quyidagi statistik ma'lumotlar tasdiqlaydi (% hisobida): Shahar aholisining o'sishi, ayniqsa, migratsiyaning tez sur'atlari bilan teng ravishda tabiiy o'sish bilan ham xarakterlanadi. Bu o'z o'rnida shaharda aholi sonining hududiy o'ziga xosligini ko'rsatadi. Shaharda aholi tug'ilish koeffitsiyentining yuqoriligi va nisbatan o'lim darajasining pastligi aholi sonining o'sishiga olib keladi.

Samarqand shahar aholisining o'sishi:

Shahar aholisi 2000 yilda 1991 yilga nisbatan 6,7 ming kishiga kamaygan bo'lib, bunga yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mustaqillikning dastlabki yillarida boshqa millatlarga mansub xalq vakillarining ko'chib ketishlari sabab bo'lgan edi. So'nggi yillarda shahar aholisining demografik holatida aholi tabiiy harakati va mexanik harakati quyidagi ko'rsatkichlarga ega⁷⁷:

Bugungi kunda Samarqand shahar aholisining milliy-etnik tarkibi turli xil bo'lib, bu o'z navbatida aholi migratsiyasiga xos omillarning mavjudligini guvohlik beradi. Shaharda mahalliy o'zbek va tojik millatlari bilan bir qatorda, eroniy, qoraqalpoq, rus, ukrain, belorus, qozoq, ozarbayjon, qirg'iz, turkman, tatar, koreys, arman, yahudiy, polyak, xitoy singari 90 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Shu bilan birga, respublika hududidagi jami eroniy, arman, ozarbayjon va turk millatlariga mansub aholining katta qismi Samarqand shahrida istiqomat qiladi. Shahar taraqqiyotida aglomeratsiya jarayonlari o'ziga xos o'rinni egallaydi. 1990-yillarga qadar shahar aglomeratsiyalariga vujudga kelishining negizini sanoat ishlab chiqarish tashkil etib, maqsad eng avvalo iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ularga bo'lgan munosabatlar o'zgarib ketdi. Shaharlarning raqobatbardoshligini kuchaytirish, yagona mehnat bozorini tashkil etish kabi muammolarni izchil hal qilish shahar aglomeratsiyalariga yangicha qarashni talab etadi⁷⁸.

Aglomeratsiya aholi punktlari, asosan shaharlar, shuningdek qishloqlarning intensiv xo'jalik, mehnat va madaniy-maishiy hamda rekreatsiya aloqalari bilan bog'langan, yagona birlikni tashkil qilgan kompakt hududli guruhlarining tashkil topish jarayoni bo'lib, aholining guruh bo'lib joylashishining eng rivojlangan shakllaridan biridir. Shaharlar aglomeratsiyalarining shakllantirilishi urbanizatsiya bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aglomeratsiya modelining shakllanishi asosan ikki xil bo'ladi: monotsentrik va politsentrik. Monotsentrik modelda asosiy aholi punkti aglomeratsiyaning markazi bo'lib, unga yaqin hududlar birikadi. Politsentrik modelda esa bitta yirik yadro-shahar atrofida mustaqil rivojlangan bir necha aholi punktlari joylashadi⁷⁹.

Dunyodagi yirik shahar aglomeratsiyalaridan biri Tokio aglomeratsiyasi bo'lib, uning aholisi 2014-yilda 37,8 million kishiga yetgan. 1999-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2 ta yirik shahar aglomeratsiyasi mavjud: Toshkent va Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyalari. Toshkent shahar aglomeratsiyasida 60% shahar aholisi va 40% qishloq aholisi yashaydi. Farg'ona-Marg'ilon shahar aglomeratsiyasida esa aholining 50% shaharda, 50% qishloqda istiqomat qiladi. Samarqand aglomeratsiyasining haqiqiy shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Shahar atrofi uning buyurgiga binoan bir necha dunyoning mashhur shaharlarining nomlari bilan atalgan: Damashq, Qo'qon, Sheroz, Bog'dod, Parij kabi aholi punktlari – qishloqlarga asos solingan⁸⁰. Bu aholi punktlari bevosita markaziy shahar – Samarqand bilan uzviy aloqada bo'lgan.

Bugungi kunda Samarqand viloyati hududida joylashgan eng yirik guruhli aholi punktlari tizimi Samarqand aglomeratsiyasi hisoblanadi. Samarqand aglomeratsiyasining tashkil topishi 1973 yildan boshlangan. Bunga qadar hozirgi aglomeratsiyaning hududiga faqatgina 2 ta yirik tuman shaharlar – Kattaqo'rg'on va Xishrav hamda aglomeratsiyaning asosiy shahri – Samarqand mansub edi. 1973 yildan boshlab Urgut, Bulung'ur va Jomboy shaharlarining hududi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari aglomeratsiyaga qo'shila boshladi. 1980 yillarga kelib, 1984 yildan Jomboy, Daxbed, Chortoq va Tayloq shahar aholi punktlarining hududga kiritilishi natijasida Samarqand aglomeratsiyasi chegarasi kengaydi. Samarqand shahar

aglomeratsiyasi respublikada katta ahamiyatga ega bo'lib, 6 tumanni, 4 shaharni o'z ichiga oladi

Mazkur hudud o'z ichiga Samarqand, Urgut, Tayloq va Jomboy shaharlarini qamrab olgan. Bundan tashqari, Samarqand shahar aglomeratsiyasi tarkibida tumaniga bo'ysunuvchi Juma, Loishin shaharlarini hamda Kattaqo'rg'on, Chortoq, Daxbed, Xishrav va Farhod kabi shahar tipidagi posyolkalar ham kiradi. Samarqand aglomeratsiyasi maydoni, 1995 yil ma'lumotlariga ko'ra, 4,8 ming km.kv. yoki Samarqand viloyati hududining 30 % ini tashkil etadi. 2015 yilligi ma'lumotlarga ko'ra, aglomeratsiya hududida 2 377,6 ming kishi yashagan. Shundan 1062,2 ming kishi yoki 43% shahar aholisi hisoblanadi. Shuningdek, viloyatda qator mahalliy aholi aglomeratsiyalari mavjud. Kattaqo'rg'on mahalliy aglomeratsiyasi ham mavjud. Kattaqo'rg'on mahalliy aglomeratsiyasi viloyatning shimoliy-g'arbida joylashgan. Mazkur mahalliy Aglomeratsiya Kattaqo'rg'on shahar markazidan 30-35 km radiusdagi hududni o'z ichiga oladi. Kattaqo'rg'on mahalliy aglomeratsiyasi territoriyasiga yaqin 3 ta qishloq tumanlari – Kattaqo'rg'on, Narpay, Ishtixon hududlari kiradi⁸¹.

Xususan, mustaqillik yillarida Samarqand shahar ma'muriy-hududiy bo'linishida hamda aholi dinamikasida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Respublikada olib borilgan shaharsozlik siyosati hamda ma'muriy-hududiy bo'linishda amalga oshirilgan islohotlarning amaliy natijasi sifatida shahar hududi kengaydi, hamda undan boshqaruv tartibi qonunchilik talablari doirasida amalga oshirildi. Shaharning boshqaruv tizimi milliy davlatchilik hamda demokratik tamoyillar asosida tashkil qilindi. Mustaqillikning dastlabki yillarida va so'nggi yillarda shahar ijtimoiy-iqtisodiy muhitida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi⁸².

Shahar aholisi soni sezilarli darajada ko'paydi. Shahar qoshida milliy iqtisodiy sohalar rivojlandi, xalq xo'jaligi kompleks tizimining rivojlanish jarayonlari va aholi bandligining kuchli ketma-ketligi o'z tasdig'ini topdi. Bu holat aholi migratsiyasining ko'chish sur'atlarini faollashtirishga imkon yaratdi.

Samarqand aglomeratsiyasining hududi kengaydi, aholi soni sezilarli darajada oshib bordi. Dastlab Samarqand aglomeratsiyasi hududiga 2 ta shahar kirgan bo'lsa, bugungi kunda u 9 ta shahar va 5 ta shaharchani qamrab oldi. Bu esa, o'z navbatida Samarqand viloyatidagi urbanizatsiya jarayonlarida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

I bob bo'yicha xulosa

Samarqand shahar madaniyati taraqqiyoti miloddan oldingi davrlarda shakllangan va turli bosqichlarni bosib o'tib, bugungi kunda zamonaviy shahar sifatida rivojlanmoqda. Ko'rib o'tilganidek, shaharning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti turli davrlarda turli sivilizatsiyalarda ham o'z shahar qoboliatini saqlab qolgan.

Siyosiy, geosiyosiy va boshqa turli omillar ta'sirida goh tanazzul, goh yuksalish yo'lidan borgan. Bunda hukmron tuzum yoki davlat mafkurasi muhim o'rin tutgan. Masalan, Amir Temur va temuriylar davrida gullab-yashnagan shahar mo'g'ul istilosi davrida tushkunlikka yuz tutgan. Rossiya mustamlakachiligi davrida Samarqand, mintaqadagi boshqa shaharlar singari, ezilayotgan tarzda rivojlangan, ya'ni uning "eski" va "yangi" qismlarida ikki xil hayot kuzatilgan. Sovet davlatining shaharsozlik siyosati Samarqand shahar taraqqiyotida o'ziga

xos iz qoldirgan bo'lsa-da, bu davrda uning tarixiy maqomi e'tibordan chetda qoldirilgani sababli tarixiy obidalar anchayin yo'qotishlarga duchor bo'lganini ko'rish mumkin.

Mustaqillik yillarida Samarqandda zamonaviy shaharsozlik tamoyillari mustahkamlandi, shu bilan birga, avvalgi ma'muriy-hududiy tuzilishining mustamlakachilik izlari bartaraf etildi. Shahar aholisi dinamik tarzda ko'payib bordi, aholi tarkibida o'zbek millatining salmog'i oshdi. Shu bilan birga, iqtisodiy va madaniy hayot ham sezilarli darajada o'zgarib bordi. Shu narsa e'tiborga molikki, barcha davrlarda Rim yoki Parij singari, Samarqand jahonning nom taratgan shaharlar safida turib, butun dunyo ahlining diqqat va e'tiborida bo'lib kelgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Tursunov, Asror, and Farxod Urakov. "HISTORY OF PILGRIMAGE TOURISM IN THE KASHKADARYA REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE." *International Journal of Artificial Intelligence* 1.1 (2025): 423-428.
2. Allanazarovich, Tursunov Asror. "THE ROLE OF THE REPUBLICS OF UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN IN THE TRANSITION OF INTERNATIONAL EVENTS." *Международный научный журнал* 2.1 (2025): 59-62.
3. Турсунов, Асрор Алланазарович. "ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ-ПРИОРИТЕТНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА." *ВЫСОКИЕ ТЕХНОЛОГИИ, НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ*. 2020.
4. Allanazarovich, Tursunov Asror. "Cultural Relations Between Uzbekistan and the Republics of Kazakhstan During Independence." *Czech Journal of Multidisciplinary Innovations* 10 (2022): 59-62.
5. Tursunov, Asror. "ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT PROCESSES OF THE TOURISM SECTOR IN QASHQADARYO REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE." *International Journal of Artificial Intelligence* 1.1 (2025): 415-422.
6. Tursunov, Asror, and Maftuna Cho'liyeva. "FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE LEGAL FRAMEWORK OF THE NEIGHBORHOOD SYSTEM DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE." *International Journal of Artificial Intelligence* 1.1 (2025): 391-394.
7. Tursunov, Asror, and Maftuna Cho'liyeva. "UPBRINGING OF A PERFECT PERSON IN THE TEAM AND ITS TRADITIONS." *International Journal of Artificial Intelligence* 1.1 (2025): 401-404.
8. Tursunov, Asror, and Nilufar Botirova. "HISTORY OF THE SOCIO-POLITICAL DEVELOPMENT OF THE CHOCH OASIS IN THE 6TH-8TH CENTURIES." *International Journal of Artificial Intelligence* 1.1 (2025): 611-616.

9. Tursunov, Asror, and Nilufar Botirova. "GREAT SILK ROAD AND CHOCH TOWNS: HISTORICAL PROGRESS." *International Journal of Artificial Intelligence* 1.1 (2025): 707-714.
10. Саидов, Бахтиёр Жамолович. "Свободное время и его значение в жизнедеятельности современной молодежи." (1996).
11. Saidov, Baxtiyor. "Pedagogy-psychological Aspects of Educating Schoolchildren in the Spirit of Patriotism." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences* 8 (2023): 14-18.
12. Саидов, Бахтиёр. "Новый Узбекистан начинается с порога школы, 19 января 2022.[Электронный ресурс]." Режим доступа: yuz. uz/(дата обращения: 23.03. 2022).
13. Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJI VA OGOHLIK TUSHUNCHASI MAZMUN-MOHİYATI." *CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES*. Vol. 1. No. 7. 2026.
14. Nomozov Xurshid. "AXBOROT JAMIYATI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI;(FALSAFIY TAHLIL QILISH)." *CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES*. Vol. 1. No. 7. 2026.
15. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
16. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI "AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.
17. Nomozov, Xurshid (2024). *JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 1(2), 52-58.
18. Xurshid, Nomozov. "AXBOROT XURUJLARINING MANBALARI, ULARNING IJTIMOIIY MUHITDA AMALGA OSHISH USULLARI." *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 41 (2025): 632-636.
19. Ruziboev Dilshod A'Zam. "TOURISM POWER OF UZBEKISTAN." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.5 (2021): 215-222.
20. Ro'ziboyev, Dilshod. "QASHQADARYO VOHASIDA QORAKO 'LCHILIKKA BO'LGAN E'TIBOR." *TAMADDUN NURI JURNALI* 9.60 (2024).
21. Ro'Ziboyev, Dilshod A'Zam O. "QASHQADARYO VILOYATIDA CHORVACHILIKNING IQTISODIY HAYOTDAGI O'RNI VA SOVET HOKIMIYATINING CHORVA OZUQASI SIYOSATI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.11 (2022): 1008-1016.

22. Рўзибоев, Дилшод Аъзам Ўғли. "XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.3 (2022): 943-952.
23. Ruziboev Dilshod A'Zam. "TOURISM POWER OF UZBEKISTAN." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.5 (2021): 215-222.
24. Niyazov Sobirjon. "EKOESTETIK TAFAKKURNING GNOSEOLOGIK JIHATI VA PRAKSIOLOGIK QIYMATI." *SHOKH LIBRARY* (2025).
25. Niyazov Sobirjon. "EKOESTETIK TAFAKKURNING NAZARIY JIHATLARI VA PRAKSIOLOGIK AHAMIYATI." *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI* 1.5 (2025): 140-146.
26. Ниёзов, С. С. "Перспективы развития экотуризма в Узбекистане." *Актуальные вопросы гуманитарных наук: теория, методика, практика.* 2022.
27. Максадова, Мехринисо Сайхановна. "ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ МОЛОДОГО ПЕДАГОГА." *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов* 5 (2018): 43-44.
28. Sayxonovna, Maksadova Mekhriniso. "PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN PRIMARY SCHOOL TEACHER PROFESSIONAL TRAINING." *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071 11.04 (2022): 15-20.
29. Kenjaev, Zarmamat. "POLITICAL CULTURE: THE BASIS OF STATE STABILITY AND WELL-BEING OF CITIZENS." *НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ: СОХРАНЯЯ ПРОШЛОЕ, СОЗДАЁМ БУДУЩЕЕ.* 2021.
30. Kenjaev, Zarmamat Tuymurodovich. "The issue of the formation the political culture of young people in the context of pluralism." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 822-825.
31. Kenjaev, Z. T. (2021). The issue of the formation the political culture of young people in the context of pluralism. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 822-825.
32. Jalilov, Ikhtiyor. "National "Kurash": History and Contemporary (On the Example of the Uzbek People)." *Procedia of Social Sciences and Humanities* 1 (2021): 360-363.